



ELEKTRON PULNING NAZARIY-HUQUQIY ASOSLARI

THEORETICAL AND LEGAL BASIS OF ELECTRONIC MONEY

¹**Marpatov Mavlonxon
Dadashevich**

¹*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, i.f.n.*

Annotatsiya Annotation

Uzb. - Ushbu maqolada jamiyatda pul muomalasi shakllari, xususan, naqd va elektron pullar o'rtasidagi iqtisodiy va huquqiy farqlar tahlil qilingan. Avvalo, naqd pullarning muomala xarajatlari yuqori ekani hamda ularni tashish va saqlash bilan bog'liq murakkabliklar ta'riflangan. Elektron pullar esa, texnologik rivojlanish natijasida samarali to'lov vositasi sifatida shakllangani, biroq ular ham muayyan xavflar va cheklovlar bilan bog'liq ekani ko'rsatib o'tilgan. Elektron pullar - emitentning pul majburiyatiga asoslangan hosilaviy to'lov vositasi ekani, lekin haqiqiy pul vazifasini to'liq bajara olmasligi ilmiy jihatdan asoslangan.

Eng. - This article analyzes the economic and legal differences between cash and electronic money. Initially, it highlights the high transaction costs associated with cash, including the complications of its transportation and storage. Electronic money, on the other hand, has emerged as an efficient means of payment due to technological advancement, although it also comes with specific risks and limitations. The study scientifically substantiates that electronic money is a derivative payment instrument based on the issuer's monetary obligation, but it cannot fully perform the functions of real (legal) money.

Kalit so'zlar: Keywords:

❖ *naqd pul, elektron pul, emitent, to'lov tizimi, haqiqiy pul, pul-kredit siyosati, markaziy bank, qonuniy to'lov vositasi, tranzaksion xarajatlar.*

❖ *cash, electronic money, issuer, payment system, real money, monetary policy, central bank, legal means of payment, transaction costs.*

Kirish.

Hech kimga sir emaski, o'tgan asrda hisob-kitoblar hajmining tinimsiz o'sishi natijasida to'lovlarni naqd pul orqali amalga oshirish samaradorligi pasayib bormoqda. Yirik hajmdagi to'lovlarni amalga oshirish uchun yirik hajmdagi naqd pullar chop etiladi va shunga mos ravishda xarajatlar qilinadi. Shuningdek, ularni tashish va saqlash uchun ham mo'maygina daromaddan voz kechishga olib keladi. Bunday xarajatlardan bank mijozlari ham istisno emas albatta. Natijada,

naqd pul muomalasini tashkil qilish ishlari murakkablashib ketgan. Qolaversa, bank amaliyotiga joriy qilinayotgan yangi innovatsion texnologiyalar ham naqd pulsiz hisob-kitoblar foydasiga o'ynagan. Biz hozir nominal pul dunyosidagi ikki hukmron pul shakli tizimi nuqsonlarini ko'rsatib o'tdik. Demak, naqd pul to'lovlari muomala xarajatlarini ko'paytirib, tadbirkorning cho'ntagiga zarar keltiradi. Aynan, shunday muomala xarajatlarini kamaytirish maqsadida naqdsiz pul hisob-kitoblariga o'tilgan. Naqdsiz

pul hisob-kitoblarida esa, biznes sirining oshkor bo'lish ehtimoli mavjuddir. Biroq, naqdsiz pul hisob-kitoblaridan voz kechib, yana serxarajat naqd pul muomalasiga qaytish mantiqqa to'g'ri kemaydi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi.

Amerikalik olim Jeykob Goldshteynning yozishicha, mazkur muammoni xal qilish uchun elektron pullarga qiziqish o'tgan asrning 80 yillaridan boshlangan [5]. Shunday qilib, elektron pullar muammosi, nafaqat mamlakat doirasida, balki xalqaro miqyosda muhokama predmetiga aylandi. Xususan, 1993 yilda Yevropa ittifoqi Markaziy banklari elektron pulning mo'jizaviy ahamiyatini o'rganishga kirishdi. O'rganish oldindan to'lov amalga oshiriladigan bank kartalari (*ing. card-based*) tahlilidan boshlandi. Tahlil natijalariga ko'ra, elektron pullarni rasman mavjudligi tan olindi. 1994 yildan boshlab elektron to'lovlar tizimi oldindan to'lov amalga oshiriladigan bank kartalari doirasidan, ko'p tarmoqli tizim darajasida (*ing. network-based*) qo'llanila boshlandi. Ming afsuslar bo'lsinkim, o'rganish natijalariga ko'ra elektron to'lovlar tizimi Markaziy bank tomonidan nazorat qilishi kerakligi belgilandi. Mazkur qaror, elektron pul ixtirochilari orzularini puchga chiqardi. Zotan, yangi elektron pul tizimi tashqi nazoratdan qutulish maqsadida yaratilgan edi. Biz bu haqda maqola oxirida alohida to'xtalib o'tamiz. Boz ustiga, 1996 yil G10 mamlakatlari Markaziy banklari rahbarlari yig'ilishida elektron to'lovlar tizimi Markaziy bank tomonidan nazorat ostida bo'lishi zarurligi ta'kidlangan. Ushbu qaror asosida, "Xalqaro hisob-kitoblar banki" elektron pul tizimlarini muntazam ravishda tahlil qilishga kirishgan va uning natijalari, shu mamlakatlarning Markaziy banklari ishtirokida muhokama qilinib borilgan. 2004 yilda 94 mamlakat Markaziy banklari ishtirokida o'tkazilgan yig'ilishda, o'sha davrda dunyoning 37 mamlakatida elektron pul tizimi mavjudligi oshkor qilindi. Mazkur tizim, borgan sari butun dunyoni

qamrab olmoqda, boz ustiga bu operatsiyalar qonun hujjatlari bilan tasdiqlanib bormoqda.

Elektron pulning huquqiy asoslari: Bu jarayon, bizning respublika uchun ham yangilik emas. Xususan, 2019 yilda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining "To'lovlar va to'lov tizimlari to'g'risida"gi Qonuni hamda mazkur Qonun talablari asosida O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan "O'zbekiston Respublikasi hududida elektron pullarning chiqarilishi va muomalada bo'lishi qoidalari" (ro'yxat raqami 3231, 2020-yil 29- aprel) [4] ishlab chiqildi.

Yuqoridagi qonun hujjatlariga muvofiq, elektron pullar, bu elektron pullar emitentining elektron shaklda saqlanadigan hamda elektron pullar tizimida to'lov vositasi sifatida qabul qilinadigan shartsiz va chaqirib olinmaydigan pul majburiyatlaridir[3]. Elektron pullar tizimiga esa operatorining elektron pullar emitenti va (yoki) elektron pullar egalari bilan hamkorligi orqali elektron pullardan foydalangan holda to'lovlar va boshqa operatsiyalar amalga oshirilishini ta'minlovchi to'lov tizimi sifatida baho berilgan. Mazkur Qonun bo'yicha nafaqat Markaziy bank, balki tijorat banklari ham muomalaga elektron pul chiqarish vakolatiga egadirlar.

Tadqiqot metodologiyasi.

Maqola ishidagi muammoni o'rganish uchun tizimli tahlil, ilmiy mushohada, analiz va sintez, induksiya va deduksiya usullaridan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi 94-moddasida "O'zbekiston Respublikasining pul birligi so'mdir. So'm yozib qo'yilgan qiymati bo'yicha qabul qilinishi shart bo'lgan qonuniy to'lov vositasidir [1]. To'lovlar naqd pul bilan va naqd pulsiz hisob-kitoblar tarzida amalga oshiriladi" deb belgilangan. O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risida"gi Qonuni 39-moddasida: "O'zbekiston Respublikasining pul birligi so'mdir. ... So'm

O'zbekiston Respublikasidagi yagona cheklanmagan qonuniy to'lov vositasi" [2], ekanligi qayd etilgan. Demak, yuqoridagi qonun hujjatlarida belgilangan me'yorlar bo'yicha respublikada haqiqiy pul, ya'ni milliy valyuta, bu - so'mdir. Binobarin, biz ham mazkur ilmiy izlanish davomida haqiqiy pul sifatida so'mni nazarda tutamiz.

Elektron pullar esa elektron pullar tizimining subyekti bo'lgan yakka tartibdagi tadbirkorlar va yuridik shaxslardan tovarlar, ishlar va xizmatlarni xarid qilish uchun

foydalanish mumkin. To'lovlar faqat elektron vositalar (elektron hamyon va elektron raqamlar) yordamida amalga oshiriladi. Bundan tashqari, haqiqiy pul emitent – markaziy bank tomonidan qoplab berilmaydi, elektron pullar esa ularning egalari xohishiga ko'ra emitent tomonidan haqiqiy pullarga almashtirilib berilishi yoki qoplab berilishi mumkin. Biz, qonunchilikda belgilangan me'yorlar asosida, haqiqiy va elektron pullarning farqini quyidagi 1-jadvalda keltirdik.

1-jadval

Haqiqiy va elektron pullarning farqi

Farq qiluvchi mezonlar	Haqiqiy pullar	Elektron pullar
<i>Emitent</i>	<i>Markaziy bank</i>	<i>Markaziy bank va banklar</i>
<i>Emitentning majburiyati</i>	<i>Qoplab berish majburiyatiga ega emas</i>	<i>Qoplab berish majburiyati mavjud</i>
<i>Amal qilish doirasi</i>	<i>mamlakat hududida yagona cheklanmagan qonuniy to'lov vositasi hisoblanadi</i>	<i>elektron pullar tizimining subyekti bo'lgan yakka tartibdagi tadbirkorlar va yuridik shaxslardan tovarlar, ishlar va xizmatlarni xarid qilish uchun foydalanish mumkin</i>
<i>To'lovlar qanday tarzida amalga oshirilishi</i>	<i>to'lovlar naqd pul bilan va naqd pulsiz hisob-kitoblar tarzida amalga oshiriladi</i>	<i>elektron vositalar (elektron hamyon va elektron raqamlar) yordamida amalga oshiriladi</i>
<i>Bajaradigan funksiyalari</i>	1. Kiymat ulchovi. 2. Muomala vositasi. 3. Jamgarma vositasi. 4. Tulov vositasi. 5. Jaxon puli funksiyasi.	1. Muomala vositasi. 2. Tulov vositasi.
<i>Identifikatsiya qilinishi</i>	<i>Naqdsiz pul identifikatsiya qilinadi, naqd pul egasi identifikatsiya qilinmaydi</i>	<i>identifikatsiya qilinadi</i>

Yuqoridagi qonun hujjatlari tahlili natijasida tuzilgan 1-jadval ma'lumotlari elektron pulni haqiqiy puldan farq qilishini ko'rsatib turibdi. Agar bu ikki pul turining farq qiluvchi eng asosiy mezoniga e'tibor qaratadigan bo'lsak, haqiqiy pullarning naqdsiz pul shakli identifikatsiya qilinadi, naqd pul egasi identifikatsiya qilinmaydi. Elektron pullar esa to'la identifikatsiya qopqoniga ilingan. Endi, mazkur masalaga iqtisodiy jihatdan yondoshgan holda izlanishni davom ettiramiz.

To'g'ri O'zbekiston Respublikasining "To'lovlar va to'lov tizimlari to'g'risida"gi Qonunida unga "elektron pullar emitentining

elektron shaklda saqlanadigan hamda elektron pullar tizimida to'lov vositasi sifatida qabul qilinadigan shartsiz va chaqirib olinmaydigan emitentning pul majburiyati" deb ta'rif berilgan. Lekin, mazkur ta'rifda asosiy urg'u haqiqiy pullarga emas, balki ularning soyalari hisoblangan elektron pullarga nisbat qilingan. Holbuki, elektron pul tizimining ibtidosi ham, intihosi ham haqiqiy puldir. Haqiqiy pullar bo'lmasa, elektron pullar to'g'risida gap ham bo'lishi mumkin emas. Elektron pullar hech qachon haqiqiy pul funksiyalarini to'la bajara olmaydi. Sababi aniq, chunki kvitansiya hech qachon pul kabi o'zi xarid qilgan tovarlar

qiymatini o'lday olmaydi. Mazkur jarayonda, elektron pullar tomonidan muomala (to'lov) vositasi hamda jamg'arma to'plash funksiyalari, biz "haqiqiy pul" deb atagan maxsus depozit hisobvaraqaqa kirim qilingan pul mavjud bo'lgan taqdirdagina bajariladi. Binobarin, haqiqiy pul, o'zining funksional mohiyatini saqlab qolaveradi.

Elektron pul turlari: Bizning yuqoridagi mushahodan ma'lum bo'lmoqdaki elektron pullar mohiyatan ikki:

qonuniy kuchga ega;

qonuniy kuchga ega bo'lmagan turlarga bo'linadi.

Biz ilmiy izlanishni qonuniy kuchga ega deb hisoblangan elektron pullar bo'yicha davom ettiramiz. Elektron pulning ikkinchi turiga nisbatan esa alohida ilmiy izlanish talab etiladi. Zero, ular umuman qonuniy tusga ega bo'lmagan kriptovalyutalardir.

Elektron pul mohiyatiga kirish: XXI asrning boshiga kelib, xususan jahon moliyaviy krizisi davrida elektron pullarning sifat jihatdan yangi avlodi o'z siymosini ko'rsata boshladi. Zotan, moliyaviy krizis silsilasi, amalda bo'lgan pul tizimining barcha elementlariga nisbatan ishonchsizlik ruxini yaratgan edi. Natijada, pul sohasiga, biz yuqorida "davlat irodasi" deb maqtovini keltirgan nominal pulga jiddiy raqobotdosh yangi pullar kirib keldi va ular haqiqiy pul maqomini egallashga da'vo qilmoqda. Bu yangi avlodning fe'l-atvori, nominal pulning mohiyatini belgilovchi mezonlarga ziddir. Xususan, ular davlat tomonidan emas, balki boshqa subyektlar tomonidan muomalaga chiqarilmoqda. Bu esa nominal pulning davlat irodasi mavqeiga darz ketganligini anglatadi. Shuningdek, yangi elektron pullar banklarni chetlab o'tgan holda to'lov subyektlarning elektron hamyoni orqali harakat qilib, ular alohida tarmoq yoki sohadagi tovar va xizmatlar uchun shartli to'lov vositasi sifatida qo'llanilmoqda. Ko'rinib turibdiki, uning xususiyatlari nominal pul mohiyatini belgilovchi mezonlardan tubdan farq qiladi.

Zotan, yangi elektron pullarning harakati amaldagi qonun talablari doirasidan chetga chiqqan. Bu dalillar, nominal pulning mamlakat uchun yagona to'lov vositasi mezon ham inkor etilyotganligidan dalolatdir. Binobarin, yangi elektron pulning mohiyati ham nominal pul mohiyatidan farq qiladi. Shu bois, ayrim iqtisodchi olimlar elektron pullarni virtual raqamli pullar deb ham atashadi. Eslatib o'tamiz, virtual so'zi lotincha virtualis – ehtimoliy vaziyat yoki yuzaga chiqishi mumkin bo'lgan yashirin imkoniyat ma'nosini anglatadi.

Elektron pul beshigi hisoblangan g'arb mamlakatlarida elektron pul mohiyatiga nisbatan qanday qarashlar mavjud va uning huquqiy asoslari nimalardan iborat. Xalqaro ensiklopedik ma'lumotlarga ko'ra, elektron yoki raqamli pullar bu bir xil ma'noga ega bo'lmagan evolyutsion atama bo'lib, u juda ko'p ahamiyatli tushunchalarda kompyuter tarmog'ida tizimli saqlanadigan va ishlatiladigan puldir.

Yevropa ittifoqida elektron pullar, bu foydalanuvchining tasarrufidagi elektron ko'rinishdagi (elektron tashuvchidagi) emitentning majburiyati hisoblanadi. Bunday majburiyatlar quyidagi uch mezonga javob berishi kerak [6]:

1. Elektron tashuvchida qayd etiladi va saqlanadi.

2. Emitent tomonidan boshqa subyektlardan qabul qilingan pul miqdoridan kam bo'lmagan summada chiqariladi.

3. Boshqa subyektlar (emitentdan boshqa) tomonidan to'lov vositasi sifatida qabul qilinadi.

Kapitalizmning ilk bosqichida faoliyat ko'rsatgan zargarlik pul omborlarini yodga olsak, zargarlik buyumlari ombori tomonidan berilgan tilxat, bozorda pul vazifasi yoki uning muomala vositasi funksiyasini bajara boshlaydi. Aslida, tilxat pul emas, o'z mohiyatiga ko'ra, u "qarz majburiyati"dir. Sababi aniq, tilxat hech qachon pul kabi o'zi xarid qilgan tovarlar qiymatini o'lday olmaydi.

Tilxatda ko'rsatilgan pul summasi zargarlik omboriga qabul qilingan qimmatlikning oltin puldagi ifodasidir. Zero, o'sha davrda pulning qiymat o'lchov funksiyasi haqiqiy oltin pullar tomonidan ideal ravishda bajarilganligiga aslo shubha yo'q, muomala vositasi funksiyasini esa, ularning timsol (simvol)lari bo'lgan tilxatlar yoki zamonaviy til bilan aytganda qog'oz pullar bajargan. Xazina to'plash yoki qiymat saqlash funksiyasini zargarlik omborida saqlanayotgan oltin pullarning o'zlari bajargan. Xuddi shunday holat oltin pullarning surrogat - o'rindoshlari (kumush, bronza, qog'oz...) muomalada bo'lgan holatlarda ham yuz bergan.

Agar pulning tarixiy hayot yo'lidan kelib chiqqan holda tahlil qilsak, bugun kunda "zo'r ixtiro" deb bong urayotgan yangiliklar, xotiramizdan ko'tarilgan eskilikdan boshqa narsa emas. Zero, elektron pul emitenti tomonidan berilgan kvitansiya, aslo pul emas, bizning fikrimizcha, u o'z mohiyatiga ko'ra, bugun muomalada bo'lgan haqiqiy pullarning (qonuniy yagona to'lov vositasi hisoblangan) surrogat - o'rindoshlaridan boshqa narsa emas. Zotan, bugun qiymat o'lchov va jamg'arma to'plash funksiyasini emitent bankning maxsus hisobvarag'iga kirim qilingan haqiqiy pullarning o'zlari bajarmoqda. Elektron pullar esa, ularning vakillari sifatida muomala vositasi funksiyasini bajarmoqda.

Yuqoridagi ilmiy xulosalardan kelib chiqib, bizning fikrimizcha, elektron pul bu Markaziy bank tomonidan muomalaga chiqarilgan qonuniy muomala vositasi, ya'ni haqiqiy pulning elektron kodga yashiringan axborot timsolidir. Agar, qonun hujjatlariga muvofiq, uning emitenti tijorat banklari ham bo'lishini inobatga olsak, elektron pul, bu emitentning haqiqiy pul majburiyati hisobiga yaratilgan elektron shakldagi hosilaviy to'lov vositasidir.

Zotan, elektron pul tushunchasi qonun hujjatlarida o'z o'rnini topgan bo'lsada, lekin pul maydonida haqiqiy o'yinchi sifatida tan olingani yo'q. Jahon pul tizimini tartibga soluvchi tashkilotlar, xususan Xalqaro valyuta

fondi tomonidan ham, elektron pullar na pul agregatlari va na pul bazasi tarkibiga kiritilmagan. Boz ustiga, u hali biror mamlakatda "haqiqiy pul" mavqeiga ega bo'lganicha yo'q. Bizning fikrimizcha, elektron pul haqiqiy pul emas, balki emitentning (garchan emitent Markaziy bank bo'lgan taqdirda ham) qarz majburiyatidir va shunday bo'lib qoladi.

Biz elektron pullarga emitentning haqiqiy pul majburiyati hisobiga yaratilgan elektron shakldagi hosilaviy to'lov vositasi sifatida ta'rif berdik, demak, u haqiqiy pul emas. Lekin, muomalaga chiqarilgan elektron pullar muomala vositasi funksiyasini bajaradi, ya'ni tovar va xizmatlar uchun to'lov vositasi sifatida qo'llaniladi.

Qoida bo'yicha elektron pullarning hisobi emitent tomonidan hisob-kitob bankida ochiladigan maxsus depozit hisobvarag'ida yuritiladi. Maxsus depozit hisobvarag'idan faqat elektron pullarni chiqarishda pul mablag'larini kirim qilish va ularni qoplashda pul mablag'larini hisobdan chiqarish bo'yicha operatsiyalarni amalga oshirish uchun foydalaniladi. Ayni paytda, mazkur depozitdagi mablag'lar, uning bo'sh turgan kredit resursi yoki xalqaro bank tilida aytganda erkin resurslar hisoblanadi. Amaldagi bank qonunchiligiga ko'ra, bank, shu mablag'lar evaziga mijozlariga kredit berishi mumkin. Kreditlash natijasida, boshqa bir mijozning hisobvarag'ida shu summaga teng erkin pul paydo bo'ladi. Shunday qilib, bir vaqtning o'zida, ham elektron pul egasida hamda kredit olgan mijozda ham qabul qilingan depozit summasi teng to'lov vositasi paydo bo'ladi. Demoqchimizki, agar emitent bank maxsus depozit hisobvarag'idagi mablag'lardan kredit sifatida foydalansa, muomalada qo'shimcha to'lov vositasi yoki pul massasi vujudga keladi. Shundan kelib chiqib, muomaladagi pul massasini asossiz ko'payib ketishini oldini olish maqsadida maxsus depozit hisobvarag'idagi mablag'larni Markaziy bankda ochilgan maxsus depozit hisobvaraqa o'tkazib qo'yish bo'yicha

amaldagi 3231-sonli Qoidalariga tegishli o'zgartirish kiritish maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz.

Tabiiyki, elektron pul tizimi ishtirokchilari, ushbu munosabatlarga daromad olish maqsadida kirishadi. Fan tilida aytganda har bir ishtirokchi elektron pul tizimida ishtirok etishida o'z manfaatini ko'zlaydi. Amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq ushbu tizimda elektron pul emitenti, elektron pul tizimi agentlari, operator, pul egalari (ular bir nechta bo'lishi mumkin), hisob-kitob banki va boshqa to'lov tizimlari, yakka tartibdagi tadbirkor hamda boshqa yuridik shaxslar shartnoma asosida qatnashishlari mumkin. Biznes obyekti esa oddiy tovarlar yoki ko'rsatiladigan xizmatlar savdosidan boshqa narsa emas. Aslida, bu savdoda sotuvchi, to'lovchi va xizmat ko'rsatuvchi banklar ishtirok etishi kifoya.

Bunda, buyuk olim D.M.Keynsning quyidagi so'zlarini keltirishni joiz deb topdik: "Tadbirkorlikni chayqovga aylanishi, kapitalizmga bo'lgan zarbadir. Yohud u daromadlarning teng bo'lmasligi to'g'risidagi psixologik muvozanatni barbod qiladi" [7]. Mashhur olim, jamiyatda mehnatga muvofiq daromad bo'lishini nazarda tutgan, albatta. Bundan tashqari, biz yana, pulning bugungi

kungacha bo'lgan evolyutsion rivojlanish omillarini tahlil qilib, pul innovatsiyasi muomala (tranzaksion) xarajatlarni kamaytirish maqsadi ustiga qurilganligini aytib o'tgan edik. Shundan kelib chiqqan holda, elektron pul tizimining bo'lajak samaradorligi xususida fikr aytishni zukko o'quvchining o'ziga havola etamiz.

Xulosa va takliflar.

Xulosa qilish mumkinki, raqamli iqtisodiyot sharoitida elektron pullarning rivojlanishi muomala samaradorligini oshirishga qaratilgan muhim vosita hisoblanadi. Shuningdek, ularning to'liq huquqiy maqomi hamda iqtisodiy ta'siri hali to'la yaqqollashmagan. Elektron pullar haqiqiy pul emas, balki emitentning to'lov majburiyatiga asoslangan kvitansiyadir. Bu esa ularning huquqiy va funksional cheklovlarini belgilab beradi. Demak, elektron pullar, davlat tomonidan to'liq nazorat qilinishini talab etadigan va xatarlilik darajasi bor to'lov vositasidir. Boshqa tomondan, ularning muomala xarajatlarini kamaytirishdagi samarasi inkor etilmaydi. Shu sababli elektron pul tizimini joriy etishda ehtiyotkorlik va aniq huquqiy asoslarga tayangan holda yondashish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi
2. O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risida"gi Qonuni, 2019-yil
3. O'zbekiston Respublikasining "To'lovlar va to'lov tizimlari to'g'risida"gi Qonuni, 2019-yil
4. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining "O'zbekiston Respublikasi hududida elektron pullarning chiqarilishi va muomalada bo'lishi qoidalari" (ro'yxat raqami 3231, 2020 yil 29 aprel)
5. Goldshteyn J. "Money: the fascinating story of the only revered and cursed invention of mankind" – Moscow: Eskmo, 2022. – 256 p.
6. Directive 2000/46/YeS of the European Parliament and of the Council of the YeS
7. Keynes D.M. "Treatises on Monetary Reform" Selected Works. M. 193.s. 100.